



QASHQADARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## Qashqadaryo viloyatida kichik tadbirkorlik

2024- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar

# Qashqadaryo viloyatida kichik tadbirkorlik

## Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar

2025- yilning 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni **22,5** mingtani tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **5,5** mingtaga kamaygan yoki **19,8 %** ga pasaygan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **10,0** birlikni tashkil qildi.

## Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar


2024- yilning yanvar-dekabrida **4,5** mingta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **24,3 %** ga kamaydi.

**Yuridik shaxs** – o‘z mulkida, xo‘jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo‘lgan hamda o‘z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o‘z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da’vogar va javobgar bo‘la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

## 2024- yilning 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo‘lgan sohalar bo‘yicha soni va ulushi



**2021-2025- yillar 1- yanvar holatida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz), ming birlikda**



# Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar


## Hududlar bo'yicha 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

2024- y.		2025- y.
5506	Qarshi sh.	4750
1630	Shahrisabz sh.	1358
1382	G'uzor	1058
1127	Dehqonobod	871
1833	Qamashi	1397
2038	Qarshi	1730
2007	Koson	1485
1949	Kitob	1651
1198	Mirishkor	763
945	Muborak	753
1461	Nishon	1132
1365	Kasbi	1043
762	Ko'kdala	652
1401	Chiroqchi	1161
1416	Shahrisabz	1113
1960	Yakkabog'	1535

2025- yil 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni jami **22452** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **4484** tani tashkil etdi.

2025- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'pi Qarshi shahrida **4750** tani yoki jamiga nisbatan **21,2 %** ni tashkil etdi.

## 2025- yil 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda





# Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbatli

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbatli, birlikda)\*

Qarshi sh.	16,1
Mirishkor	15,3
Muborak	13,6
Nishon	13,0
Koson	11,1
Kitob	10,9
Qarshi	10,5
Shahrisabz sh.	9,3
Yakkabog'	8,8
Ko'kdala	8,7
Dehqonobod	8,6
Kasbi	8,5
Shahrisabz	8,3
G'uzor	7,7
Chiroqchi	7,4
Qamashi	7,2

Qashqadaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soninining har 1000 aholiga nisbatli 1- yanvar holatiga, birlikda



2025- yil 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni har 1000 aholiga nisbatan 10,0 birlikni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2024- yilga nisbatan 1,7 birlikka kamaygan.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbatli eng yuqori ko'rsatkich Qarshi shahrida 16,1 birlik, Mirishkor tumanida 15,3 birlik, Muborak tumanida 13,6 birlik, Nishon tumanida 13,0 birlik va Koson tumanida 11,1 birlikka yetdi.

\* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)


# Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Qashqadaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda

## Eng yuqori ko'rsatkich



Qarshi shahri  
– 16,1 birlik.



Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko'rsatkich Qarshi shahrida **16,1** birlik, Mirishkor tumanida **15,3** birlik, Muborak tumanida **13,6** birlik, Nishon tumanida **13,0** birlik, Koson tumanida **11,1** birlik, Kitob tumanida **10,9** birlik, Qarshi tumanida **10,5** birlik, Shahrisabz shahrida **9,3** birlik, Yakkabog' tumanida **8,8** birlik va Ko'kdala tumanida **8,7** birlik kuzatildi.


## O'rta ko'rsatkich




Qarshi tumani  
– 10,5 birlik.



## Eng past ko'rsatkich



Qamashi tumani  
– 7,2 birlik.



**Tadbirkorlik faoliyati (kichik tadbirkorlik)** – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

**2025-yil 1- yanvar holatiga har 1000 aholiga nisbatan to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlarining ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda**

### Qarshi shahri

16,1

### Muborak tumani

13,6

### Koson tumani

13,0

### Mirishkor tumani

11,1

### Nishon tumani

# Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar


yanvar-dekabr oylarida hududlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

2023- y.

2024- y.

918	Qarshi sh.	818
267	Shahrisabz sh.	255
350	G’uzor	210
258	Dehqonobod	166
293	Qamashi	281
498	Qarshi	445
481	Koson	338
383	Kitob	294
277	Mirishkor	189
196	Muborak	163
337	Nishon	224
378	Kasbi	202
232	Ko’kdala	226
251	Chiroqchi	193
357	Shaxrisabz	204
446	Yakkabog'	276

2024- yilning yanvar-dekabrida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo‘yicha ulushi, % da




2024- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko‘p ulushi Qarshi shahri – **18,2** %, Qarshi tumani – **9,9** %, Koson tumani – **7,5** %, Kitob tumani – **6,6** %, Qamashi tumani – **6,3** %, Yakkabog’ tumani- **6,2** %, Shahrisabz shahar – **5,7** %, Ko’kdala tumani – **5,0** %, Nishon tumani- **5,0** % hissalariga to‘g‘ri keldi.

# Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

**2023-2024- yillarning yanvar-dekabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda**



**Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan shahar va tumanlar, birlikda**




2024- yilning yanvar-dekabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida **1602** ta, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida **939** ta hamda sanoatda **706** ta yangidan tashkil etilgan.


Tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda, eng ko‘p kichik korxona va mikrofirma Qarshi shahrida **818** ta, Qarshi tumanida **445** ta, Koson tumanida **338** ta hamda Kitob tumanida **294** ta yangidan tashkil etilgan.

# Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlik




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2020-2024- yillarning yanvar-dekabri davomida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlik



So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek, bu sohaga berayotgan katta e'tiborlari natijasida 2020-2024- yillarning yanvar-dekabri oylari davomida jami **35071** ta kichik korxona va mikrofirma yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida – **12117** (yoki 34,5 %) ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida - **8764** (yoki 25,0 %) ta, sanoat sohasida – **5496** (yoki 15,7 %) ta, xizmatlar sohasida – **7160** (yoki 20,4 %) ta va qurilish sohasida – **1534** (yoki 4,4 %) tani tashkil etgan.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari


yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari

## Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHM dagi ulushi dinamikasi (yanvar-dekabr oylarida), % da

2024- yilning yanvar-dekabrida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **71,0** % ni tashkil qilib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan **0,5** punktga ko‘paygan. Ko‘payishining asosiy sababi, yirik tadbirkorlik subyektlarida qo‘silgan qiymat hajmining kamayishi bilan ifodalanadi.




## 2024- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo‘lgan tarmoqlari, % da




2024- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari qishloq xo‘jaligida **97,7** % ni, yo‘lovchi aylanmasida **96,8** % ni, chakana savdoda **95,6** % ni, yo‘lovchi tashishda **90,9** % ni, yuk tashishda **87,5** % ni, qurlilishda **73,0** % ni tashkil etdi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari (yanvar-dekabr oylarida)


## Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati



## Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati




## Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari (yanvar-dekabr oylarida)


## Kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo‘jaligi faoliyati



## Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi faoliyati



## Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko‘rsatishdagi faoliyati



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


**2024- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so‘m**

Dehqonobod	<b>284,6</b>
Ko‘kdala	<b>292,3</b>
Kasbi	<b>351,4</b>
G’uzor	<b>412,7</b>
Yakkabog‘	<b>567,1</b>
Shahrisabz	<b>606,7</b>
Qamashi	<b>634,2</b>
Koson	<b>647,0</b>
Shahrisabz sh.	<b>660,3</b>
Nishon	<b>670,2</b>
Qarshi	<b>738,1</b>
Kitob	<b>755,2</b>
Mirishkor	<b>807,9</b>
Muborak	<b>853,1</b>
Chiroqchi	<b>856,7</b>
Qarshi sh.	<b>2307,0</b>

2024- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **14155,4** milliard so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Qarshi shahri (**2307,0** mlrd. so‘m), Chiroqchi (**856,7** mlrd. so‘m), Muborak (**853,1** mlrd. so‘m) Mirishkor (**807,9** mlrd. so‘m), va Kitob (**755,2** mlrd. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi. Dehqonobod tumanida (**284,6** mlrd. so‘m) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo‘lib qolmoqda.

**Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmida eng yuqori ulushga ega hududlar, % da**




\* Tumanlar kesimida yashirin iqtisodiyot kuzatuvi ma’lumotlari kiritilmagan

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

**2019-2024- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi dinamikasi, mlrd. so‘m**

*2024- yil yanvar-dekabrida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 35,8 % ni tashkil etdi.*



**2024- yilning yanvar-dekabrida hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da**

Ko'kdala		100,0
Chiroqchi		93,3
Shahrisabz sh.		87,7
Mirishkor		85,4
Qamashi		74,4
Muborak		70,9
Shahrisabz		57,7
Yakkabog'		50,9
Qarshi sh.		46,0
Kitob		44,3
Koson		39,8
Qarshi		27,8
Dehqonobod		27,1
Kasbi		15,0
G'uzor		9,2
Nishon		7,1

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Ko'kdala tumani (**100,0 %**), Chiroqchi tumani (**93,3 %**), Shahrisabz shahri (**87,7 %**), Mirishkor tumani (**85,4 %**), Qamashi tumani (**74,4 %**), Muborak tumani (**70,9 %**), Shahrisabz tumani (**57,7 %**), Yakkabog“ tumani (**50,9 %**), Qarshi shahri (**46,0 %**), Kitob tumani (**44,3 %**) va Koson tumani (**39,8 %**) tashkil etdi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

**2019-2024- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi hajmi va ulushi dinamikasi**



## 2024- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi

Yakkabog'	<b>314,3</b>	<b>94,1</b>
Shahrisabz	<b>275,2</b>	<b>87,2</b>
Chiroqchi	<b>489,4</b>	<b>74,2</b>
Ko'kdala	<b>85,3</b>	<b>100</b>
Kasbi	<b>228,4</b>	<b>91,9</b>
Nishon	<b>144,2</b>	<b>23,9</b>
Muborak	<b>224,0</b>	<b>29,9</b>
Mirishkor	<b>161,3</b>	<b>84,5</b>
Kitob	<b>356,3</b>	<b>85,1</b>
Koson	<b>471,1</b>	<b>73,5</b>
Qarshi	<b>660,9</b>	<b>74,3</b>
Qamashi	<b>215,0</b>	<b>86,7</b>
Dehqonobod	<b>187,8</b>	<b>97,4</b>
G'uzor	<b>571,1</b>	<b>57,7</b>
Shahrisabz sh.	<b>323,8</b>	<b>63,2</b>
Qarshi sh.	<b>2633,9</b>	<b>65,2</b>


↑ hajmi, mlrd. so'mda  
↑ ulushi, % da

2024- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **11015,6** milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **73,0** % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2023- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **102,7** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Qarshi shahri (**2633,9** mlrd. so'm), Qarshi (**660,9** mlrd. so'm), G'uzor (**571,1** mlrd. so'm), Chiroqchi (**489,4** mlrd. so'm), Koson (**471,1** mlrd. so'm), Kitob (**356,3** mlrd. so'm) tumanlari hamda Shahrisabz shahri (**323,8** mlrd. so'm) da qayd etildi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati


## 2019-2024- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o‘zgarish dinamikasi, mlrd. so‘mda




2024- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **13499,9** milliard so‘mni yoki jami investitsiya hajmining **40,9 %**ini tashkil etdi. O‘sish sur’ati 2023- yilning mos davriga nisbatan **158,1 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Nishon tumani (**6017,6** mlrd. so‘m), Qarshi shahri (**1582,6** mlrd. so‘m), G‘uzor tumani (**793,7** mlrd. so‘m), Kitob tumani (**661,1** mlrd. so‘m), Chiroqchi tumani (**644,0** mlrd. so‘m), Shahrisabz shahri (**592,2** mlrd. so‘m), Qarshi tumani (**504,2** mlrd. so‘m) hamda Yakkabog‘ (**193,5** mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi.

## 2019-2024- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da



## 2024- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi va ulushi




■ ulushi, % ■ hajmi, mlrd. so‘m

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligi faoliyati

2024- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi **43298,0** mld. so‘mni yoki jami qishloq xo‘jaligi mahsuloti hajmining **97,8** % ini tashkil etdi. O‘sish sur’ati 2023- yilning tegishli davriga nisbatan **103,6** % ni tashkil qildi.

## 2019-2024- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari qishloq xo‘jaligi hajmining o‘zgarish dinamikasi, mldr. so‘mda




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi Koson (**4216,2** mldr. so‘m), Kitob (**4034,3** mldr. so‘m), Qamashi (**3751,1** mldr. so‘m), Kasbi (**3700,1** mldr. so‘m), Qarshi (**3326,9** mldr. so‘m) hamda Yakkabog‘ (**3286,2** mldr. so‘m) tumanlarida qayd etildi.

## 2024- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi

Yakkabog‘	3286,2	98,5
Shahrisabz	2830,8	99,2
Chiroqchi	2932,9	100,0
Ko‘kdala	2389,5	100,0
Kasbi	3700,1	92,5
Nishon	2810,2	87,6
Muborak	2065,6	98,3
Mirishkor	2766,6	99,6
Kitob	4034,3	99,4
Koson	4216,2	99,7
Qarshi	3326,9	99,0
Qamashi	3751,1	99,7
Dehqonobod	1786,0	99,4
G‘uzor	2757,2	98,8
Shahrisabz sh.	357,2	98,0
Qarshi sh.	287,3	91,4

hajmi, mldr. so‘mda  
ulushi, % da

## 2019-2024- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligidagi ulushi dinamikasi, % da



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

**2019-2024- yillarning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmi va ulushi dinamikasi**



2024- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **24925,0** mld. so‘mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **95,6 %** ini tashkil etib, o‘sish sur’ati 2023- yilning tegishli davriga nisbatan **109,6 %** ni tashkil qildi.

**2024- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi**

Yakkabog'	1 224,3	98,8
Shahrisabz	747,9	84,3
Chiroqchi	1 957,7	97,6
Ko‘kdala	742,7	93,3
Kasbi	913,4	99,0
Nishon	940,5	99,2
Muborak	682,1	99,5
Mirishkor	867,6	99,3
Kitob	1 287,8	98,1
Koson	972,7	94,0
Qarshi	1 113,6	98,8
Qamashi	1 746,9	99,1
Dehqonobod	767,1	99,0
G’uzor	980,2	95,3
Shahrisabz sh.	1 900,9	96,7
Qarshi sh.	6 289,4	93,2

hajmi, mlrd. so‘mda

ulushi, % da

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Qarshi shahri (**6289,4** mld. so‘m), Koson (**1972,7** mld. so‘m), Chiroqchi (**1957,7** mld. so‘m), Shahrisabz shahri (**1900,9** mld. so‘m), Qamashi (**1746,9** mld. so‘m), Kitob (**1287,8** mld. so‘m) hamda Yakkabog‘ (**1224,3** mld. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

**2019 va 2024- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o‘zgarishi, mlrd. so‘m**

24925,0


11943,1

2024- y.

2020- y.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko‘rsatish faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining ko‘rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2024- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko‘rsatish hajmi, mlrd. so‘mda

Qarshi sh.	2355,2
Kitob	1507,1
Qamashi	1457,5
Qarshi	1407,9
Kasbi	1042,3
Koson	1032,7
Mirishkor	1006,2
Nison	916,6
Muborak	893,9
Yakkabog‘	866,7
Shahrisabz sh.	764,7
Shahrisabz	705,3
Dehqonobod	664,9
G‘uzor	622,8
Chiroqchi	491,8
Ko‘kdala	330,6

2024- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **32958,7** mlrd. so‘mlik xizmatlar ko‘rsatildi yoki ko‘rsatilgan xizmatlar umumiyligi hajmining **76,2 %** ini tashkil qildi va o‘sish sur’ati 2023- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **11,8 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p xizmatlar hajmi Qarshi shahri (**2355,2** mlrd. so‘m), Kitob tumani (**1507,1** mlrd. so‘m), Qamashi tumani (**1457,5** mlrd. so‘m), Qarshi tumani (**1407,9** mlrd. so‘m), Kasbi tumani (**1042,3** mlrd. so‘m), Koson tumani (**1032,7** mlrd. so‘m), Mirishkor tumani (**1006,2** mlrd. so‘m), Nishon tumani (**916,6** mlrd. so‘m) va Muborak (**893,9** mlrd. so‘m) hissasiga to‘g‘ri keldi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko‘rsatish faoliyati

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo‘lgan turlari (yanvar-dekabr oylarida)

<b>7466,0</b>	<b>Savdo xizmatlari</b>	<b>92,0</b>
<b>5269</b>	<b>Transport xizmatlari</b>	<b>92,6</b>
<b>1006,0</b>	<b>Shaxsiy xizmatlar</b>	<b>99,9</b>
<b>1104,9</b>	<b>Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta’mirlash bo‘yicha xizmatlar</b>	<b>99,8</b>
<b>15373,3</b>	<b>Yashash va ovqatlanish xizmatlari</b>	<b>89,5</b>
<b>613,5</b>	<b>Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar</b>	<b>93,0</b>
<b>531,6</b>	<b>Ijara xizmatlari</b>	<b>95,8</b>
<b>655,9</b>	<b>Boshqa xizmatlar</b>	<b>51,6</b>
<b>353,8</b>	<b>Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar</b>	<b>67,0</b>
<b>120,6</b>	<b>Me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar</b>	<b>37,5</b>
<b>129,6</b>	<b>Ta’lim sohasidagi xizmatlar</b>	<b>11,1</b>
<b>245,9</b>	<b>Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari</b>	<b>18,9</b>
<b>88,7</b>	<b>Moliyaviy xizmatlar</b>	<b>2,0</b>

*Hajmi, mlrd. so‘mda*



*Ulushi, foizda*

Yuqoridagi diagramma ma’lumotlariga ko‘ra, xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori shaxsiy xizmatlarda – **99,9 %** (**1006,0** mlrd. so‘m), Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta’mirlash bo‘yicha xizmatlarida – **99,8 %** (**1104,9** mlrd. so‘m), ijara xizmatlarida – **95,8 %** (**531,6** mlrd. so‘m), transport xizmatlarida – **92,6 %** (**5269,0** mlrd. so‘m) hamda Savdo xizmatlarida – **92,0 %** (**7466,0** mlrd. so‘m) ni tashkil etdi.


Kichik biznes subyektlarining xizmatlar sohasida eng kichik ulushi moliyaviy xizmatlarda **2,0 %** (**88,7** mlrd so‘m) kuzatildi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati (yanvar-dekabr oylarida)

## Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati




## Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

**2019-2024- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, % da**



**2024- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi**

Yakkabog'	3244,0	38,3
Shahrisabz	6111,1	49,8
Chiroqchi	2599,0	95,9
Ko'kdala	7348,8	100,0
Kasbi	8553,7	3,2
Nishon	292,8	0,3
Muborak	3360,4	81,0
Mirishkor	5744,8	58,1
Kitob	9686,0	99,9
Koson	8488,2	49,5
Qarshi	3854,6	6,6
Qamashi	5813,9	96,8
Dehqonobod	8578,6	100,0
G'uzor	6768,9	81,6
Shahrisabz sh.	3607,5	100,0
Qarshi sh.	11989,9	31,1


hajmi, ming. AQSH dollar  
ulushi, % da

2024- yilning yanvar-dekabrida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **108,2** million AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining **21,0** % ini tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Ko'kdala tumani, Dehqonobod tumani va Shahrisabz shharlarida – **100,0** %, Kitob tumanida – **99,9** % Qamashi tumanida – **96,8** %, Chiroqchi tumanida – **95,9** %, G'uzor tumanida – **81,6** %, Muborak tumanida – **81,0** %, Mirishkor tumanida – **58,1** %, ni tashkil qildi. Eng past ko'rsatkich Nishon tumanida – **0,3** % ni tashkil etdi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2024- yilning yanvar-dekabrida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **436,6** million AQSH dollarini yoki jami importning **69,0 %** ni tashkil etdi.


## 2024- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagagi ulushi. % da




2024- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi, Mirishkor va Chiroqchi tumanlarida – **100 %**, Ko'kdala tumanida – **99,7%**, Qamashi tumanida – **96,1 %**, Shahrисабз shahrida – **93,3 %**, Muborak tumanida – **90,6 %**, hamda Nishon tumanida – **81,2 %** ni tashkil etdi.

Qamashi	96,1
Yakkabog'	19,7
Qarshi	27,4
Koson	62,2
Shaxrisabz	4,5
Dehqonobod	49,6
G'uzor	27,6
Kitob	60,2
Kasbi	56,3
Nishon	81,2
Qarshi sh.	73,0
Shahrisabz sh.	93,3
Muborak	90,6
Ko'kdala	99,7
Mirishkor	100,0
Chiroqchi	100,0


# Kichik tadbirkorlik subyektlarininig transport faoliyati




Yuk  
tashishda



Yuk  
aylanmasida



Yo'lovchi  
tashishda



Yo'lovchi  
aylanmasida

2024- yilning yanvar-dekabrida avtomobil transportida yuk tashishning umumiylajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **87,5** % ni tashkil etdi. 2023-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **100,3** % ni tashkil qildi.

---

2024- yilning yanvar-dekabrida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiylajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **89,9** % ni tashkil etgan bo'lib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **117,4** % ni tashkil qildi.

---

2024- yilning yanvar-dekabrida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiylajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **92,0** % ni tashkil etib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **101,2** % ni tashkil qildi.


---

2024- yilning yanvar-dekabrida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiylajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **95,4** % ni tashkil etib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **98,6** % ni tashkil qildi.

---

# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**2024- yil IV- chorak bo‘yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi, birlikda**




2024- yil IV- chorak yakunlariga ko‘ra, kichik korxona va mikrofirmalar o‘rtasida tanlanma kuzatuvlar o‘tkazildi.

Ushbu so‘rovnoma da **1036** ta kichik korxona va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning **575 (55,5 %)** tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. **407 (39,3 %)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan **54 (5,2 %)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – **41,1 % (426 ta)**, xizmatlar sohasida - **24,3 % (252 ta)**, sanoatda – **12,6 % (130 ta)**, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – **12,9 % (134 ta)**, qurilishda – **9,1 % (94 ta)**, ni tashkil etdi.

**2024- yil IV- chorak bo‘yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyati turlari bo‘yicha taqsimlanishi, % da**



# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

## 2024- yil IV- chorak bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo‘yicha taqsimlanishi

246	Qarshi sh.	23,7
76	Shahrisabz sh.	7,3
32	G‘uzor	3,1
32	Dehqonobod	3,1
48	Qamashi	4,6
97	Qarshi	9,4
68	Koson	6,6
76	Kitob	7,3
32	Mirishkor	3,1
38	Muborak	3,7
49	Nishon	4,7
43	Kasbi	4,2
19	Ko‘kdala	1,8
64	Chiroqchi	6,2
55	Shahrisabz	5,3
61	Yakkabog‘	5,9


**Jami birlikda**

**Ulushi, foizda**

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p kuzatuvida ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalar Qarshi shahri (**246** ta), Qarshi (**97** ta), Shahrisabz shahri (**76** ta) va Kitob (**76** ta), Koson (**68** ta) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2020-2024- yillarning IV- choragi uchun umumiyligi iqtisodiy holatini baholanishi dinamikasi (joriy davrga nisbatan), birlik**




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiyligi iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalarning soni 2020- yilning IV- choragida **432** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning IV- choragiga kelib esa **575** taga yetgan yoki 2020- yilning IV- choragiga nisbatan **143** taga oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning soni 2020- yilda **425** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning yanvar-dekabrida **407** ta yoki **28** taga kamaygan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2020- yilda **93** tani tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilga kelib **54** tani tashkil etgan va bu ko'rsatkich 2020- yilga nisbatan **39** taga oshgan.

# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2020-2024- yillarning IV- choragida umumiyl iqtisodiy holatini baholaganlar soni (o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan), birlik**



Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo‘yicha o‘tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma’lumotlari natijasi bo‘yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o‘zlarining umumiyl iqtisodiy vaziyatini o‘tgan yilning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalarining soni 2020- yilning IV- choragida **417** tani tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024- yilning IV- choragiga kelib esa **567** taga yetgan yoki 2020- yilga nisbatan **150** taga ko‘paygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o‘zgarishsiz deb baholagan korxonalarining soni 2020- yilning IV- choragida **420** ta bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024- yilning IV- choragiga kelib, bu ko‘rsatkich **323** ta yoki **97** taga kamaygan.

O‘z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarining soni esa 2020- yilning IV- choragida **72** tani tashkil etgan bo‘lsa, 2024- yilning IV- choragiga kelib, bu ko‘rsatkich **49** tani tashkil etib, **23** taga kamaygan.

# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2020-2024- yillarning IV- choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (korxonaning joriy holati bo‘yicha), % da**




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo‘yicha o‘tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma’lumotlari natijasi bo‘yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o‘zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2020- yilning IV- choragida **45,5 %** ni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024- yilga kelib esa **55,5 %** ga yetgan yoki 2020- yilga nisbatan **10,0 %** birlik oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2020- yilda **44,7 %** bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024- yilning IV- choragida **39,3 %** yoki **6,4 %** birlikka kamaygan.

O‘z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2020- yilda **9,8 %** ni tashkil etgan bo‘lsa, 2024- yilga kelib, bu ko‘rsatkich **5,2 %** ga yetgan yoki **4,6 %** ga kamaygan.

# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2020-2024- yillar IV- choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (o‘tgan yillarning mos davriga nisbatan), % da**




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo‘yicha o‘tkaziladigan tanlanma kuzatuvi ma’lumotlari natijasi bo‘yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o‘zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o‘tgan yillarning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar ulushi 2020- yilning IV- choragida **45,9** % ni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024- yilga kelib esa **60,4** % ga yetgan yoki 2020- yilning IV- choragida nisbatan **14,5** % birlik ko‘paygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o‘zgarishsiz deb baholagan korxonalarining ulushi 2020- yilning IV- choragida **46,2** % bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024- yilning yanvar-dekabrida **34,4** % yoki **11,8** % birlikka kamaygan.

O‘z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarining ulushi esa 2020- yilning IV- choragida **7,9** % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2024- yilning IV- choragiga kelib, bu ko‘rsatkich **5,2** % yoki **2,7** % birlikka kamaygan.

# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**2024- yilning IV- choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash,  
% da**



■ Qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligi   ■ Sanoat   ■ Qurilish   ■ Savdo   ■ Xizmat  
Kichik korxona va mikrofirmalarning 2024- yilning IV- choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda – **23,9 %** ni, xizmatlar sohasida – **13,4 %** ni, sanoat sohasida – **6,9 %** ni tashkil etdi.


qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **6,7 %** ni, tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi savdoda – **15,0 %** ni, xizmatlar sohasida – **10,0 %** ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **6,7 %** ni, tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi savdo sohasida – **2,2 %** ni, sanoat sohasida – **1,1 %** ni, xizmatlar sohasida – **0,9 %** ni tashkil etdi.

# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning IV- choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



2024- yilning IV- choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni yaxshilanish deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda – **25,8** % ni, xizmatlar sohasida – **15,1** % ni, sanoatda – **7,8** % ni, tashkil etdi.

qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **7,1** % ni, tashkil etdi.

Shuningdek, yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni o'zgarishsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi savdoda – **14,0** % ni, xizmatlar sohasida – **8,2** % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **5,4** % ni, tashkil etdi.

Yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni yomonlashish deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi savdoda – **2,2** % ni, xizmatlar sohasida – **1,1** % ni, sanoatda – **0,9** % ni, tashkil etdi.

# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning IV- choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da


	O‘tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o‘zgarishlar		
	Ko‘payish (yaxshilanish*)	o‘zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
<b>Korxonaning umumiy aylanmasi</b>	562	327	54
<b>Band bo‘lganlar soni</b>	466	432	41
<b>Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx</b>	527	371	40
<b>Moliyaviy mablag‘lar: o‘z, kredit va qarz mablag‘lari</b>	386	510	42
<b>Raqobat muhiti</b>	566	336	34

	Yaqin 3 oyda o‘zgarishlar istiqboli		
	Ko‘payish (yaxshilanish*)	o‘zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
<b>Korxonaning umumiy aylanmasi</b>	650	356	30
<b>Band bo‘lganlar soni</b>	559	451	26
<b>Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx</b>	614	398	24
<b>Moliyaviy mablag‘lar: o‘z, kredit va qarz mablag‘lari</b>	467	536	33
<b>Raqobat muhiti</b>	656	359	21

\* Faqat raqobat muhitiga tegishli


# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**2024- yilning IV- choragida biznesga ishonch muhitini baholash,  
o‘tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o‘zgarishlar, % da**



■ ko‘payish (yaxshilanish\*) ■ o‘zgarishsiz ■ kamayish (yomonlashish\*)

**2024- yilning IV- choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o‘zgarishlar istiqboli, % da**



■ ko‘payish (yaxshilanish\*) ■ o‘zgarishsiz ■ kamayish (yomonlashish\*)

\* Faqat raqobat muhitiga tegishli